

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**CENTRAL ASIAN MEDICAL UNIVERSITY
XALQARO TIBBIYOT UNIVERSITETI**



**TA‘LIM SIFATINI NAZORAT QILISH BO‘LIMI
NIZOMI**

Farg‘ona-2024

“TASDIQLAYMAN”

Central Asian Medical University
xalqaro tibbiyot universiteti rektori
N.Sh.Mamasadikov



2024-yil

Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti “Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi” to‘g‘risida

NIZOMI

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017 - yil 18- iyuldagi 515-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-iyuldagi 515-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 2017- yil 24 -iyuldagi 497-sonli bo‘yruq‘iga muvofiq “Central Asian Medical Unuversity”da ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tashkil etildi.

1-bob. Umumiy qoidalar

- 1.Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda Davlat inspeksiyasi deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va javobgarligi, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Ta’lim inspeksiyasi ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonlari, professor-o‘qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshiradigan, idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar, ta’lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazadigan maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi hisoblanadi.
3. Ta’lim inspeksiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi va unga hisobot beradi.
4. Ta’lim inspeksiyasi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachiligida byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘ladi.

5. Ta'lim inspeksiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

6. Ta'lim inspeksiyasi tarkibiga yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo'limlar (keyingi o'rinlarda Hududiy bo'limlar deb ataladi) kiradi.

Hududiy bo'limlar o'z faoliyatini Davlat inspeksiyasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomga muvofiq amalga oshiradi.

7. Davlat inspeksiyasi o'z faoliyatini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

2-bob. Ta'lim inspeksiyasining asosiy vazifalari va funksiyalari

8. Quydagilar Ta'lim inspeksiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonlari, professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish;

idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ta'lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish;

o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari, davlat talablari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish, ta'lim muassasalari reytingini aniqlash;

9. Ta'lim inspeksiyasi o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quydagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonlari, professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish sohasida:

o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari, davlat talablari va malaka talablariga muvofiqligini tizimli ravishda tahlil qilish;

pedagog kadrlarga lavozim va malaka toifalarni berish uchun normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

ta'lim sohasidagi boshqaruv organlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining pedagog kadrlarga mos ravishda lavozim va malaka toifalarini berishni tashkil qilish va o'tkazish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

pedagog kadrlarga lavozim va malaka toifalarini berish davriyligi haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

pedagog kadrlarga lavozim va malaka toifalari berishni tashkil etish;

lavozim va malaka toifalariga ega bo'lgan pedagog kadrlarga belgilangan namunadagi malaka toifalariga oid sertifikatlar berish;

kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda ish beruvchilarning ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati bo'yicha takliflar asosida mutaxassislik malaka talablarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat ta'lim standartlari, davlat talablari va malaka talablarini, shuningdek ular asosida ta'limning barcha turlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlarni ekspertizadan o'tkazish;

ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya hamda kadrlar tayyorlash sifati monitoringini tashkil etish va amalga oshirish;

uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan fan olimpiadalari, bellashuvlar va turli ko'rik-tanlovlarni xolis va adolatli o'tkazilishini nazorat qilish, natijalarini tahlil etish;

ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

b) idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, ta'lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish sohasida:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda ta'lim sifatini nazorat qilish va ta'lim muassasalarini faoliyatini baholash me'zonlarini ishlab chiqish;

ta'lim sifati nazorati hamda attestatsiya jarayonida qo'llanadigan nazorat materiallarini ishlab chiqish, maxfiyligini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;

ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish uchun jalb etiladigan ekspertlarni tanlash, o'qitish va o'qitish yakunlari bo'yicha ushbu ekspertlarni saralab olish mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish;

ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish jadvallarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

ta'lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

ta'lim sifati monitoringi, attestatsiya o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etilishini nazorat qilish;

attestatsiya natijalariga ko'ra, ta'lim muassasalarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish;

davlat akkreditatsiyasidan o'tgan ta'lim muassasalarining reestrini yuritish;

ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish jarayoni va natijalariga doir masalalar bo'yicha ekspert xulosalari, hisobotlar, tahliliy materiallar tayyorlash;

idoraviy mansubligidan va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, ta'lim muassasalarini tashkil etish (qayta tashkil etish, tugatish) hamda ularning maqomini qayta ko'rib chiqish bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlash;

v) O'quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari, davlat talablari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish, muassasalari reytingini aniqlash sohasida:

o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar bilimlarini aniqlash maqsadida nazorat materiallarini ishlab chiqish;

nazorat ishlarini o'tkazish, natijalarni tahlil qilish, ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash, shu jumladan ta'lim muassasalarida umumta'lim fanlari va kasbiy fanlar bo'yicha tanlab olish asosida bitiruvchilarning ta'lim tayyorgarligi darajasi va o'qitish sifati monitoringini o'tkazish orqali ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar o'rtasida ta'lim sifatini oshirish, davlat ta'lim standartlari, davlat talablari va malaka talablarini bajarish darajasini o'rganishga qaratilgan intellektual ko'rik- tanlovlar, musobaqalarni tashkil etish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati monitoringini olib borish va nazorat qilish bo'yicha tashkiliy-huquqiy va metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqishni tashkil etish;

zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati monitoringini olib borish;

ta'lim muassasalarida o'qitish va kadrlar tayyorlash sifatini o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish;

ta'lim sifatini baholash natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlash;

ta'lim sifatini baholash natijalari asosida ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatining umumiy holati bo'yicha ta'lim muassasalari raytingini aniqlash;

10. Bo'lim quydagi vazifalarni amalga oshiradi:

ta'lim muassasalari attestatsiyasining o'tkazilishini, uning sifatli va samarali tashkil qilinishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

ta'lim muassasalarini attestatsiyasidan o'tkazish jarayonida Davlat inspeksiyasi va ta'lim sohasida hududiy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish;

oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish jarayonida oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari tomonidan o'tkaziladigan ichki attestatsiya jarayonini muvofiqlashtirish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash monitoringini olib borish va sifatini nazorat qilish jarayonida tashkiliy ishlarni amalga oshirish.

3-bob. Ta'lim inspeksiyasining huquqlari va javobgarligi

11. Ta'lim inspeksiyasi o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun vazirliklar, idoralar, ta'lim muassasalaridan zarur ma'lumotlar va materiallarni olish;

ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jaryonlari, professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish bo'yicha ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xabarlarini tomonidan ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda qabul qilingan buyruqlar, farmoyishlar va qarorlarning amal qilishini to'xtatib qo'yish;

ta'lim muassasalari ta'lim sifatini, ta'limning barcha turlari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarining davlat ta'lim standartlariga, davlat talablari va malaka talablariga muvofiqligini belgilangan tartibda tekshirish;

attestatsiya jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'lim sohasidagi boshqaruv organlari va ta'lim muassasalaridan talab qilib olish;

shartnoma asosida ilmiy-metodik va axborot-konsalting xizmatlarini ko'rsatish;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni hal etish uchun vazirliklar va idoralar, ta'lim muassasalarining olimlari, amliyotchi pedagog o'qituvchi-metodistlar hamda xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda innovatsion laboratoriyalar, tayanch ta'lim muassasalarini belgilash, maqsadli ilmiy-tadqiqot, ijodiy guruhlar, ilmiy kengash va komissiyalar tashkil etish;

o'z vakolatlari doirasida vazirliklar va idoralar, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati muammolari bo'yicha xalqaro konferensiyalar, kongresslar, simpoziumlar, seminar va o'quvlar tashkil etish va ularda ishtirok etish, shuningdek davlatlararo va hukumatlararo hamkorlik masalalari bo'yicha muzokaralarda qatnashish;

o'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlari va ta'lim sohasidagi boshqaruv organlari, fuqarolarning uzini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislarini jalb etgan holda ta'lim sifati monitoringini, konferensiyalar, yig'ilishlar, seminarlar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

o'z vakolatiga tegishli muassasalarda o'quv yo'llanma, metodik ishlanmalar, nazorat materiallarini ishlab chiqish;

ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish jarayonida ta'lim sifatiga oid aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlar uchun ushbu muassasalarning raxbar va pedagog hodimlariga nisbatan jarimalar qo'llash.

Ta'lim inspeksiyasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

12. Ta'lim inspeksiyasi o'z vakolatlari doirasida vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan normativ huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqlidir.

Ta'lim inspeksiyasi zarur hollarda, davlat boshqaruvining boshqa organlari bilan birgalikda belgilangan tartibda qo'shma qaror va boshqa hujjatlar chiqarish huquqiga ega.

13. Ta'lim inspeksiyasi o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

4-bob. Ta'lim inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish

15. Ta'lim inspeksiyasi boshligi:

Ta'lim inspeksiyasi faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi va ta'lim inspeksiyasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi yuzasidan shaxsan javob beradi;

Ta'lim inspeksiyasi hodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

Ta'lim inspeksiyasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

Ta'lim inspeksiyasi faoliyatining joriy va istiqbol rejalarini tuzilishini tashkil etadi;

Ta'lim inspeksiyasi hodimlarini rag'batlantiradi hamda ularni davlat mukofotlari, faxriy unvonlar, faxriy yorliqlar berilishiga tavsiya etadi;

Ta'lim inspeksiyasi hodimlarini zarur hollarda intizomiy javobgarlikka tortadi.

Ta'lim inspeksiyasi boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

5-bob. Davlat inspeksiyasi faoliyatini moliyalashtirish

18. Ta'lim inspeksiyasi faoliyati quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

Ta'lim muassasasi mablag'lari;

6-bob. Yakuniy qoida

21. Ta'lim inspeksiyasini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.